



O'ZBEKISTON IQTIDORLI YOSHLARINI TAQDIRLASH VA MODDIY RAG'BATLANTIRISHNING XORAZM VILOYATI TAJIRIBASI

Madrimov Ixtiyor Baxtiyor o'g'li

Urganch davlat universiteti, Tarix fakulteti talabalasi

ixtiyor_madrimov94@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6406906>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-mart 2022

Ma'qullandi: 10-mart 2022

Chop etildi: 14-mart 2022

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada iqtidorli yoshlar va sportchilarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar natijasi yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR

Yoshlar, huquq, davlat siyosati, "Yosh olimlar", "Mard o'g'lon", "Kelajak bunyodkori" paralimpiya, iqtidorli yoshlar.

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan boshlaboq, yoshlar va ularning kelajagi haqida g'amxo'rlik qilish masalalariga ustuvor darajada e'tibor qaratila boshlandi. Shu bois, yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kamolotiga eng avvalo, bu sohadagi ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari doimiy takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunda yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste'dodini qo'llab-quvvatlash masalalari qamrab olingan. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda esa hokimiyat va boshqaruv organlarining bu boradagi vakolatlari hamda sohaga doir boshqa ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solingan. Shuningdek, yoshlarning bepul umumiy ta'lim olish huquqining kafolatlangani ham e'tiborga molikdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta'lim-tarbiya Yangi Renessansning mustahkam poydevori bo'lmoqda.

Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar esa yigit-qizlarning malakali mutaxassis bo'lib hayotga kirib kelishida muhim omil bo'lmoqda. So'nggi yillarda bu borada qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildiki, ular yoshlarning intilish va iqtidorini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishda, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirishda yangi tizimni shakllantirdi. Quvonarli tomoni shundaki, zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bugungi yoshlarning talab va ehtiyojlarini



o'rganib, yangidan- yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslarini alohida ta'kidlash lozim. Davlatimiz rahbarining yoshlar kamolotiga qarayotgan doimiy e'tibori, ayniqsa, ta'lim islohotlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu islohotlarning yutug'i esa yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini kuchaytirmoqda.

Xorijiy ta'lim muassasalaridan o'zimizdagi oliy o'quv yurtlariga o'qishini ko'chirish, test jarayonlari, bir vaqtning o'zida 5 ta OTMda bilimini sinab ko'rish masalalari buning yorqin misolidir. Albatta bu kunlarni asrlar davomida xalqimiz orzu qilgan. Jumladan, jadidlarimizdan Mahmudxo'ja Behbudiy millat taraqqiyoti va istiqboli, Turkistonning kelajagi haqida o'ylar ekan, xalqni jaholat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog'idan qutqarib olishning birdan-bir yo'li ilm-ma'rifatli bo'lishdir, degan hulosaga kelgan edi.

Aytish joizki, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratildi, bu Yangi O'zbekistondagi yoshlarimizning dunyoqarashini tubdan o'zgartirishga asos bo'ldi. Ulardan biri oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh uchun Prezident granti joriy etiladi. Aynan ushbu Prezident grantiga Respublikamiz bo'yicha 233 nafar yoshlar sazovor boldi ushbu yoshlardan 2 nafari Xorazm viloyatidandir.

Shuningdek, ikki va undan ortiq farzandi oliy o'quv yurtida shartnoma asosida o'qiyotgan oilalarga imtiyozli ta'lim krediti berish yo'lga qo'yiladi. Yoshlarimizning nufuzli xorijiy oliy o'quv

yurtlarida tahsil olishi uchun ko'maklashishga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha eng yuqori ballarni to'plagan iqtidorli yoshlarga imtihon topshirish xarajatlari to'liq qoplab beriladi. Uchinchidan, izlanuvchi yoshlarni rag'batlantirish maqsadida "Yosh olimlar" innovatsion tanlovi uchun 30 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilganining o'zi ham katta imkoniyatdir.

To'rtinchidan, 2021 yildan boshlab maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida "Bo'lajak olim" tanlovini tashkil qilish orqali yoshlarning eng yaxshi innovatsion hamda startap loyihalariga 50 milliard so'm mablag' yo'naltirish bo'yicha ko'rsatma berilishi ham diqqatga sazovordir.

Oltinchidan, kelgusi o'quv yilidan boshlab respublikamizdagi xorijiy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun ham Prezident va davlat stipendiyalari joriy etilishi yoshlarni yuksak axloq va kuchli bilim sohibi hamda vatanparvarlik ruhida voyaga yetishida muhim omil bo'ladi.

Ilm yo'lini tanlagan iqtidorli yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash maqsadida magistratura va doktorantura bosqichlari uchun Prezident stipendiyasi kvotasini ikki barobarga oshirilgani izlanuvchi yoshlar uchun katta imkoniyat eshigni ochdi.

Aynan Urganch davlat universiteti misolida ushbu nomdor stipendiyaga sazzovor bo'lgan yoshlarni tahlil qiladigan bo'lsak 2019-2020 o'quv-yilida 7 nafar, 2020-2021 o'quv-yilida 8 nafar, 2021-2022 o'quv-yilida nomdor stipendiyalar kvotasi ko'paytirilib 13 nafar yoshlar turli xil nomdor stipendiya sohiblari bo'lganlar.



O'zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqalarga har tomonlama tayyorgarligi va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tadigan XXXII yozgi olimpiya va XVI paralimpiya o'yinlarida O'zbekiston sport delegatsiyasining ishtirokini ta'minlash hamda olimpiya sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi.¹

2021 yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan XVI paralimpiya o'yinlarida Xorazmlik yoshlar ham munosib ishtirok qilib sovrinli orinlar sohibi bo'ldilar. Jumladan, XVI Paralimpiya o'yinlarida Bog'otlik paradzyudochi Uchqun Quronboyev oltin, Shovotlik Ro'za Qo'ziyeva para pauerlifting bo'yicha kumush, Bog'otlik paradzyudochi Nafisa Sharipboyeva bronza madalni qo'lga kiritdi.²

"Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Prezident farmoni bilan yurtimizda turli soha va tarmoqlarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan yigitlarni taqdirlash maqsadida **"Mard o'g'lon"** davlat mukofoti hamda o'qish, mehnat va jamoat ishlarida har tomonlama faol ishtirok etayotgan yoshlarni taqdirlash maqsadida **"Kelajak bunyodkori"** medalini ta'asis etildi.³ Ushbu

davlat mukofotlari bilan har yili Xorazmlik yoshlar munosib taqdirlanib kelimoqdalar.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlar va sportchilarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar natijasida ko'plab yoshlar respublika va xalqaro darajadagi tanlov va musobaqalarda sovrindor bo'lib kelmoqdalar.

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2021-y., 07/21/5160/0592-son.

² <https://yuz.uz/uz/news/xorazmlik-paralimpiyachilar-ham-uy-bilan-taqdirlanishdi>.

³ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 27-son, 607-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2018-y., 06/18/5304/0591-son; 25.05.2018-y., 06/18/5447/1269-son; 01.06.2018-y.,

06/18/5454/1290-son, 28.12.2018-y., 06/18/5607/2385-son; 27.08.2019-y., 06/19/5787/3650-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “2021-yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi olimpiya va XVI paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sport delegatsiyasining ishtirokini ta‘minlash hamda olimpiya sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.06.2021 yildagi PQ-5160-sonli qarori.
2. “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli farmoni.
3. “Xorazmlik paralimpiyachilar ham viloyat hokimi tomonidan uy bilan taqdirlanishdi” Yangi O‘zbekiston gazetasi 15.09.2021 yil